

IQTIBOS SHE'RIY SAN'ATI HAQIDA

Sharipova Sunbula

Annotatsiya: Maqolada mumtoz she'riyatda keng qo'llangan she'riy san'atlardan biri – iqtibos san'atining o'ziga xos jihatlari, mazkur san'atning she'riy misralar badiiyatining yuksalishidagi o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Mulohazalar Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy va Alisher Navoiy ijod na'munalari bilan asoslangan.

Abstract: The article discusses the unique aspects of one of the widely used poetic arts in classical poetry - the art of quotation, the role and importance of this art in the development of the art of poetic verses. The comments are based on the works of Ahmed Yassavi, Sulayman Bakirghani and Alisher Navoi.

Kalit so'zlar: Ilmi balog'a, Qur'on, hadis, "Alkashshof", "Funun ul-balog'a", "Badoyi' us-sanoyi", iqtibos.

Key words: Ilmi baloga, Qur'an, hadith, "Alkashshof", "Funun ul-baloga", "Badoyi' us-sanoyi", iqtibos.

Qur'on oyatlari va hadislarining musulmon sharqi adabiyoti, badiiy tafakkur tarzida tutgan o'rni beqiyosdir. Turli tariqatlar-u, tasavvuf ta'limotining qaynoq nuqtasi bo'lgan qadim zaminimiz asrlar osha islom taraqqiyotining beshiklaridan biri bo'ldi. Inson his-tuyg'ularining asosiy ifodachisi bo'lgan adabiyotni azaldan bir qancha ilmlarga ajratishgan. Shulardan biri ilmi badi' ya'ni ilmi balog'adir.

Ilmi balog'a dastavval Qur'oni karim oyatlarini sharhlashga ehtiyoj tufayli paydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik badiiy asarlarni ham shu ilm asosida tadqiq qilish boshlanadi. Mahmud Zamaxshariy o'zining "Alkashshof" asariga yozgan muqaddimasida balog'at ilmining ahamiyati haqida shunday yozadi: "... faqih fatvo ilmida eng mashhuri bo'lsa ham, mutakallim butun dunyoni o'zining so'z san'ati bilan lol qoldirsa ham, hofiz Ibn Qirriyadan ham zehnliror bo'lsa-da, nahvchi Sibavayhidan ham bilimdon bo'lsa, lug'atshunos har bir so'zni mohirona sharhlay-da, ularning barchasi maoniy va bayon ilmlarini bilmay, Qur'on ma'nolarini tushunishga, haqiqatni bilishga ojiz bo'ladilar"[10:119].

Islom arkonlarini mahkam tutgan ijodkorlar ba'zan o'z ijodida his-tuyg'ularini Qur'on oyatlari va hadislardan na'munalar keltirib ifodalaganlar. Bu esa iqtibos san'atining vujudga kelishiga asos bo'lgan. Shayx Ahmad Xudoydod Taroziy o'zining "Funun ul-balog'a" asari uchinchi qismida bir qancha badiiy san'atlar qatori "al-iqtibos" san'atiga ham alohida to'xtaladi: "Bu san'at aningtek bo'lurkim, she'r ichinda oyati kalom yo hadis iste'mol qilurlar. Misol Shayx Sa'diy aytur:

Maro shikeb nabmeboshad, ey musulmonon,

Zi ro'yi xo'b "lakum dinikum valiyadin".

Badiiy san'atlarga bag'ishlab turkiy tilga bitilgan eng muhim manbalardan hisoblangan "Badoyi' us-sanoyi"da ham iqtibos san'ati haqida ma'lumot keltiriladi. Ilmi bade' bilimdoni Atoullah Husayniy o'zining mazkur risolasida iqtibos san'ati haqida shunday deyiladi: *"Iqtibos mashxur qavlg'a ko'ra Qur'on yo hadisdan bir nimani aning Qur'on yoki hadisdin oling'anig'a ishora bo'lmag'an tarzda kalomg'a kiritmakdin iboratdir... Iqtibos lug'atda ilm o'zlashtirmoqdur va o't olmoq ma'nosinda ham keliptur. Atash vajhi birinchi ma'nosig'a ko'ra zohirdur, ikkinchi ma'nosig'a ko'ra Qur'on va hadisni nur va aysh-u surur vositalarin hozirlamoqta o'tqa o'xshatmoqtur va alardin bir nimani kalomg'a aning ziynat-u ravnaqi uchun kiritmakni nur va aysh-u surur vositalarin hosil qilmoq uchun o't olmoqqa o'xshatmoqtur"* [4:62]. Atoullah Husayniy *Qur'on yo hadisdan "bir nimani"* uning *Qur'on yoki hadisdan olinganiga "ishora bo'lmag'an tarzda kalomg'a kiritmak"* iqtibosning muhim jihati ekanligini ta'kidlaydi.

Iqtibos san'ati talablariga muvofiq, agar oyat yo hadis qisman keltirilsa, aynan qaysi oyat yo hadisdan olinganligiga dalolat qiladigan so'z yo iborani tanlash lozim. "Shayxul mashoyix" (F. Attor), "Maqomoti oliy va mashhur, karomoti matavoliy va nomahsur", "murid va as'hobi g'oyatsiz" (A. Navoiy) bo'lgan Ahmad Yassaviy hikmatlarida iqribos san'atidan samarali foydalanilganligiga shohid bo'lamiz:

Sochu soqol xo'b oqordi, ko'ngul qaro,

Tongla borsam yo puchakman yoxud saro.

Kim "**alastu bi rabbikum**" demish vaqto,

Bilolmasman qayu jam'din bo'ldum mano. [3:14]

بِرَبِّكُمْ أَلَسْتُمْ - "alastu bi rabbikum" (Men sizning Robbingiz emasmanmi?) kalimasi "Arof" surasi 172-oyatidandir. Oyatda shunday deyiladi: Parvardigoringiz Odam bolalarining bellaridan (ya'ni, pushti kamarlaridan to Qiyomat Kunigacha dunyoga keladigan barcha) zurriyotlarini olib: «Men Parvardigoringiz emasmanmi?», deb, o'zlariga qarshi guvoh qilganida, ular: «Haqiqatan Sen Parvardigorimizsan, bizlar bunga shohidmiz», deganlarini eslang! (Sizlardan bunday guvohlik — ahd-paymon olishimiz) Qiyomat Kunida: «Bizlar bundan bexabar edik», demasliklaringiz uchundir.

Sulaymon Boqirg'oniy ustoz Ahmad Yassaviyning tariqati qoidalarini yanada chuqurlashtirib keng xalq ommasiga yetkazgan murilaridandir:

Qo'rqayurman tomug' o'ti haybatidin,

Umidim bor "**lan taraani**" rahmatingdin [8:19].

"Arof" surasining 143-oyati Shayx Alouddin Mansur tomonida quyidagicha tafsir qilingan: *"Qachonki Muso (va'dalashgan) vaqtimizda (Tur tog'iga) kelib, Parvardigori unga (bevosita) so'zlagach, u: "Parvardigorim, menga (jamolingni) ko'rsatgin. Senga bir qaray", dedi. (Alloh) aytdi: "Sen Meni (bu dunyoda) hargiz ko'rolmaysan. Ammo mana bu tog'ga boq. (Men unga ko'rinurman.) Bas, agar u (Men*

ko'ringanimda) o'rnashgan joyida tura olsa, sen ham Meni ko'rajaksan". Qachonki, Parvardigori u tog'ga ko'ringan edi, uni mayda-mayda qilib tashladi va (bu holni ko'rgan) Muso hushsiz holda yiqildi. O'ziga kelganidan keyin esa dedi: "Pok Parvardigor (noo'rin savol so'rashdan), O'zingga tavba qildim. Endi men (Sening naqadar buyuk zot ekaningga) iymon keltiruvchilarning avvali — peshqadamiman" [7:102].

Muso alayhissalomning Tur tog'idagi suhbatini musulmon sharqi xalqlari orasida juda mashhurdir. Oyatdagi "تَرٰنِي لَنْ" ya'ni "Сен Мену (бу дунёда) ҳаргиз кўролмайсан" kalomi butun boshli qissani yodga soladi va shoir xuddi o'shanda Muso alayhissalomga qilinganidek rahmatdan umidvor.

Qur'ondan iqtibos keltirish ba'zan bir oyat shaklida:

Ayshim, hushim, maishatim jumla tonib,

Bo'lg'aymu man, Yo Rab, seni tilasam man.

"**Illo man atalloha biqalbin salim**" tavrifiq tabib,

Bo'lg'aymuman, Yo Rab, seni tilasam man. [8:19]

"**Shuaro**" surasi 89-oyatini - سَلِّمْ بِقَلْبِ اللَّهِ أَلَمْ يَأْتِ مَنْ إِلَّا (Illo man atalloha biqalbin salim) Faqat, Allohga salomat (shirkdan holi) qalb bilan kelgan kishi (foйда ko'radi) [7:245]. Qalb pokligi tasavvufda juda muhimdir. Chunki ilohiy ma'rifat pok qalbdagina jilva qiladi. Pokiza qalbdan boshqa hech narsa qiyomatda foyda bermas ekan. Salomat qalb – imonli, shirk va nifoqdan holi bo'lgan qalbdir. Riyo, hasad, kibr kabi illatlar qalb kasalligi hisoblanadi. Qalb buzilishi bilan barcha a'zolar buzila boshlaydi.

Ba'zan iqtibos keltirish so'z birikmasi orqali oyatga ishora tarzida, ba'zan esa faqat mazmun orqali amalga oshirilgan. Bora-bora Qur'on va hadis ilmini o'zlashtirmoq shunday bir yuksak pog'onaga ko'tarildiki, ma'lum oyat yo hadisning to'la matni va ma'nosini anglashda ayrim odamlar uchun bir so'z yoki bir ishora kifoya edi:

Addoi Qul Sulaymon yig'lar zori,

"**Fi nori jahannama**" Qur'onda oyat bori

"**Xolidina foho abado**" tavba zori,

Bo'lg'aymu man, yo Rab, seni tilasam man [8:19].

Sulaymon Boqirg'oniy bir oyatga ("Bayyina" surasi, 6-oyat) ishora etuvchi فِي جَهَنَّمَ نَارٍ (do'zax olovida) va فِيهَا خٰلِدِيْنَ (Ular unda abadiy qolurlar) iboralarini ikki misrada qo'llaydi. Oyatda shunday deyiladi: "Albatta, ahli kitob va mushriklardan iborat kofir kimsalar jahannam o'tida bo'lib, o'sha joyda mangu qolurlar. Ana o'shalar xaloyiqning eng yomonidirlar" [7:459].

Ma'lumki, adabiyot tarixida Nizomiy Ganjaviyga ergashib qanchadan-qancha xamsalar yaratildi, lekin badiiy asar uchun oliy hakam - vaqt va kitobxon ularni asta-sekin unutdi. Sanoqli asarlarga asrlar osha insoniyatning ma'naviy qadriyati

darajasiga ko'tarila oldilar. Faqat sanoqli ijodkorlarga bu zalvorli maqomni saqlab qoldilar. Alisher Navoiy ularning davomchisi, o'zining ta'biri bilan aytganda to'rtinchisi (*"robiuhum kalbihum"*) bo'lishga intiladi. Bu xususda Hazrat "Xamsat ut-mutahayyirin"da shunday deydi: *"Ul vaqtkim, faqir "Xamsa" g'a tatabbu' qildim, bir dostonda Hazrati Shayx Nizomiy va Amir Xusrav Dehlaviy va ul Hazrat (Abdurahmon Jomiy) maddohliqlaridakim, o'zumni ixlos va niyozmandliq yuzidin alarg'a tobe' va payrav tutub, suhanguzorliq voqe' bo'lub erdikim:*

Kahfi fano ichra alar bo'lsa gum,

Men ham o'lay "Robiuhum kalbihum" [1:22].

Mazkur baytlar "Hayrat ul-abror" muqaddimasi(XIII bob)dan olingan bo'lib, unda "Qur'oni Karim"ning *"Kahf"* surasida keluvchi qissalardan biriga ishora etiladi. Bunda foniylik g'orida ular (Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy) yo'qolgudek (fano jomini sipqorib, Haq vujudidan baqo topgudek) bo'lsalar, Navoiy ularning to'rtinchilari - itlari bo'lish istagini bildiradi. Bu o'rinda ijodkor o'zini *"kahf kishilari"* (*xamsanavislar*)dan biri atashga haddi sig'masdan kamtarlik bilan ularning ortidan ergashgan itga tashbeh etadi. Yana bir jihati it *"kahf"*ga kirganlarning so'ngisi. Bu qiyos bir bashoratdek yangraydi. Zero, Alisher Navoiy bizgacha dunyo tan olgan xamsanavislarning oxirgisidir.

Umuman olganda, Qur'oni karim va hadislar din-u diyonatni mahkam tutgan, iymonda sobit turgan ajdodlarimiz ijodining asosiy g'oyaviy mezoni va ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan. Ijodkor o'zi yashoyotgan muhitning asiridir deyishadi. Mumtoz ijodkorlarimiz ham islomning oltin davri vakillari sifatida Qur'oni karim va hadislardan ilhom manbai, tafakkur poydevori sifatida oziqlanish bilan bir qatorda, islom g'oyalarining xalq orasida targ'ibotchisiga ham aylanishgan. Bunda iqtibos san'atining *she'riy misralar badiyatining yuksalishidagi o'rni va ahamiyati bilan alohida o'ringa egadir.*

ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Xamsat ut-mutahayyirin. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006
2. Davlatov O. Alisher Navoiy she'riyatida Qur'on oyatlari va hadislarining badiiy talqini. (Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (doctor of philosophy) ilmiy darajasi uchun tayyorlangan dissertatsiya) – Samarqand: 2017. -160 b.
3. Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (*Yangi topilgan namunalar*). T.: Movarounnahr, 2004, - 83 b.
4. Атоуллоҳ Хусайний. Бадое ус-санойи. (Форсчадан Алибек Рустамов таржимаси). –Т.: Ф.Ғулум номидаги Адабиётва санъат нашриёти. 1981.
5. Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Т.: Ўқитувчи, 1996. -334 б.
6. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. – Т.: Маънавият, 1998. -320 б

7. Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима / Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т.: Чўлпон, 1992. -672 б.
8. Сулаймон Боқирғоний. Боқирғон китоби: шеърлар ва дoston. (Нашрга тайёрловчилар: И. Ҳаққул ва С. Рафиддинов). – Т.: Ёзувчи, 1991. -80 б.
9. Ҳожиаҳмедов А. Шеър санъатлари ва мумтоз қофия. – Т.: Ўқитувчи, 1999.
10. Юсупова Д. Аруз вазни қоидалари ва мумтоз поэтика асослари (ўқув қўлланма). Т.: Таълим-медиа, 2019, -184 б.